КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeve, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	



O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: sh.kurbaniyozov@trm.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, korporativ boshqaruv tizimining rivojlanish bosqichlari, moliyaviy va tashkiliy omillarning ta'siri hamda xalqaro tajribalarning ahamiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish orqali sohaning investitsiya jozibadorligini kuchaytirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, samaradorlik, qurilish materiallari sanoati, investitsiya muhiti, raqobatbardoshlik, innovatsiya, rivojlanish istiqbollari.

Abstract. This article provides a comprehensive scientific analysis of the prospective directions for enhancing the efficiency of corporate governance in Uzbekistan's construction materials industry. The study examines the ongoing reforms, stages of development of the corporate governance system, and the influence of financial and organizational factors, as well as the importance of international best practices. The article emphasizes that improving corporate governance can enhance investment attractiveness, strengthen competitiveness, and ensure the sustainable development of the industry.

Key words: corporate governance, efficiency, construction materials industry, investment climate, competitiveness, innovation, development prospects.

Аннотация. В статье проведён научный анализ перспективных направлений повышения эффективности корпоративного управления в промышленности строительных материалов Узбекистана. В исследовании раскрыты текущие реформы в отрасли, этапы развития системы корпоративного управления, влияние финансовых и организационных факторов, а также значение международного опыта. Особое внимание уделено возможностям повышения инвестиционной привлекательности, конкурентоспособности и обеспечения устойчивого развития отрасли за счёт совершенствования корпоративного управления.

Ключевые слова: корпоративное управление, эффективность, промышленность строительных материалов, инвестиционный климат, конкурентоспособность, инновации, перспективы развития.

KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini, jumladan, qurilish materiallari sanoatini barqaror rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangi sanoat zonalari va klasterlarning tashkil etilishi, shuningdek, infratuzilmaviy loyihalarning kengayib borishi natijasida qurilish materiallariga bo'lgan ichki va tashqi talab sezilarli darajada oshmoqda. Bu jarayon sohada boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishni muhim strategik vazifaga aylantirmoqda.

Korporativ boshqaruv tizimi — bu korxona faoliyatini strategik rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan muhim boshqaruv mexanizmidir. Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish, eng avvalo, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda sohaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Amaliy jihatdan qaraganda, bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida korporativ boshqaruv tamoyillarini to'liq joriy etish yo'lida tizimli yondashuvlar shakllanmoqda. Ayrim korxonalarda boshqaruvning shaffofligi, resurslardan samarali foydalanish, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish tizimlari bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, mavjud jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish sohada korporativ boshqaruvni yangi bosqichga ko'tarish uchun zarur omil hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy asosda aniqlash, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro tajribalar asosida milliy modelni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy vazifasidir. Bunday yondashuv nafaqat sohaning ichki rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga, investitsiya muhiti yaxshilanishiga va xalqaro raqobatbardoshlikning oshishiga ham samarali hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, E. N. Veasey [1], R. S. Eells [2], A. Berle va G. Means [3], N. K. Chayka [4]larning ilmiy izlanishlarida korporativ boshqaruv tizimining nazariy asoslari, boshqaruv subyektlari o'rtasidagi munosabatlar va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashdagi mexanizmlar yoritilgan. Ularning tadqiqotlari korporativ boshqaruvni takomillashtirishda shaffoflik, mas'uliyat va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimligini asoslab beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar — D. Suyunov, E. Xoshimov [5], Z. A. Ashurov [6], M. B. Hamidulin [7], Sh. N. Zaynutdinov, R. I. Nurimbetov [8], E. X. Mahmudov [9], S. M. Niyazov [10], A. Suyunov [11], S. Elmirzayev [12], J. Qurbanov [13], S. Akramov [14], I. P. Najimov [15] va boshqa tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlari orqali korporativ boshqaruvning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini har tomonlama yoritib berganlar. Ularning ishlarida korporativ boshqaruvning milliy modelini shakllantirish, korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etish masalalari tahlil qilingan.

So'nggi yillarda ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni chuqur o'rganish va ularning milliy iqtisodiyot sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari hali to'liq tizimlashtirilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot ishida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy mexanizmlar chuqur tahlil qilinib, ularni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash sharoitida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, iqtisodiy-statistik baholash, taqqoslama tahlil, ekonometrik modellash va hamda ekspert baholash usullaridan tizimli tarzda foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv korporativ boshqaruv tizimining samaradorlik omillarini chuqur o'rganish, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sirini baholash va sohani barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ boshqaruvni takomillashtirish jarayoni o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi uchta asosiy elementga tayanadi.

Birinchi element — bu boshqaruv organlari va aksiyadorlar manfaatlarini o'zaro integratsiyalash hamda muvofiqlashtirish orqali mavjud xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi rag'batlantiruvchi tizimni shakllantiruvchi tashqi bozor mexanizmlaridir. Ushbu mexanizm "bozor intizomi" deb atalib, korxonalarda samarali raqobat muhitini yaratish va boshqaruv jarayonlarini ochiqlik tamoyillari asosida yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Ikkinchi element — bu investorlarga hamda boshqa manfaatdor tomonlarga o'zaro munosabatlarda adolatli huquqiy himoya kafolatlarini yaratish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etishning shaffof mexanizmini ta'minlaydigan huquqiy tartibga solish tizimidir. Bunda xalqaro standartlarga mos me'yoriy-huquqiy asoslar, mustaqil arbitraj tizimlari va samarali sud mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.



Uchinchi element — bu manfaatdor tomonlarning manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan ichki korporativ boshqaruv tizimi bo'lib, unda qo'shimcha qoidalar, ichki nazorat vositalari hamda rag'batlantiruvchi mexanizmlar majmuasi o'z ifodasini topadi. Mazkur tizim korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirish va aksiyadorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu uch elementning uyg'un faoliyati korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omili bo'lib, ular o'zaro ta'sir orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va sohaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish elementlari⁸

“Bozor intizomi” — bu korporativ boshqaruvni takomillashtirish elementlaridan biri bo'lib, amaldagi korporativ boshqaruv tizimining tashqi mexanizmi sifatida sud-huquq tizimi tomonidan taqdim etilgan huquqiy intizomni mazmunan to'ldiruvchi muhim boshqaruv vositasidir. Ushbu mexanizm orqali bozor institutlari mavjud qonun-qoidalar va me'yorga nisbatan yanada moslashuvchan nazorat hamda muvozanat tizimini shakllantiradi. Natijada, raqobat tamoyillari asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi uchta asosiy bozor faoliyat ko'rsatadi: korporativ nazorat bozori, mehnat bozori va tovarlar bozori.

Mazkur tizimda tashqi bozor kuchlari korporativ boshqaruvni amalga oshiruvchi menejerlarning harakat yo'nalishini, shuningdek, ichki boshqaruv mexanizmlarining xususiyatini amaliy jihatdan belgilab beradi. Shu bilan birga, huquqiy va tartibga soluvchi institutlar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash hamda kuchli korporativ boshqaruv sektorini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

Samarali huquqiy tizim korporativ boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan turli nizolarni hal etishda ishonchli vosita bo'lib, korporativ boshqaruvni takomillashtirishning ajralmas elementi hisoblanadi. Bu institutlar odatda tegishli nazorat funksiyalarini bajaruvchi qonun hujjatlari hamda tartibga soluvchi organlar majmuasidan iborat bo'ladi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlarda korporativ boshqaruv qonunchiligi ushbu tuzilmalar faoliyatida shaffoflikni oshirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va ularning manfaatlarini muvofiqlashtirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Mazkur jarayonda qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik muhim o'rin tutadi. Ushbu qonun hujjatlari aksiyadorlarni himoya qilish, axborot shaffofligini ta'minlash hamda “insayder” savdosi kabi holatlarning oldini olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, bu institutlar korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishida “qonunchilik monitoringi”ni amalga oshiradi, korporativ boshqaruv amaliyotini, jumladan, aksiyadorlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi me'yorlarni belgilaydi.

Menejerlarni rag'batlantirish mexanizmi sifatida iqtisodiy vositalar, jumladan, aksiyadorlik opsiyonlaridan foydalanish tizimi ham amalda tartibga solinadi. Bundan tashqari, birjalarda amal qiluvchi listing talablari va korporativ boshqaruv kodekslari ham korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, AQShda 1934-yilda tashkil etilgan Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish tizimi yanada takomillashtirildi. Ayniqsa, Nyu-York fond birjasi va mamlakatdagi boshqa fond birjalari ushbu komissiya nazorati ostida faoliyat yuritib, korporativ boshqaruvni tartibga solish hamda shaffoflikni ta'minlash funksiyalarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, ayrim tartibga solish funksiyalari Iqtisodiy hisobot standartlari kengashi (FASB) tomonidan ham amalga oshiriladi.

Qonunlar va me'yoriy hujjatlar majmuasi korporativ xatti-harakatlarni aniqlashda bozorning rolini qo'llab-quvvatlaydi va to'ldiradi. Ularning bajarilishi, shuningdek, xususi shartnomalar asosida kafolatlanadi.

Zamonaviy qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish tizimining eng muhim jihatlaridan biri — bu bozor ishtirokchilari tomonidan axborot taqdim etish standartlarining aniq belgilanganidir. Ushbu yondashuv bir tomondan, investitsiya qarorlarini shakllantirishda ishonchni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, kapital bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, huquqiy tartibga solish va bozor mexanizmlari uyg'unlashib, korporatsiyalar uchun zarur rag'batlarni yaratadi hamda korporativ boshqaruv tizimini yanada samarali qiladi.



Axborot sifati va uning iste'molchi uchun ahamiyatini baholash masalasi bugungi kunda global iqtisodiy hamjamiyatda faol muhokama qilinmoqda. Mazkur jarayon korporativ boshqaruv tizimida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo'lidagi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ushbu elementda ichki mexanizmlar ham korporativ boshqaruvning iqtisodiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi hamda korporativ samaradorlikka bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir, avvalo, korporativ boshqaruvning mulk va nazorat strukturasiga, iqtisodiy tuzilmasiga (ya'ni o'z kapitali va qarz mablag'lari nisbatiga), direktorlar kengashining tarkibiga hamda menejerlarni rag'batlantirish shakllariga bog'liq bo'ladi. Ushbu omillar tashqi investorlarning qarorlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Muhim ichki mexanizmlardan biri — bu aksiyadorlar mulkini taqsimlash, aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqlarini belgilash hamda ushbu ovoz berish qoidalari va tartiblarini aniq shakllantirishdir. Ovoz berish huquqi orqali aksiyadorlar korporativ boshqaruv tizimida faol ishtirok etib, direktorlar kengashining tarkibini belgilashda ham o'z ta'sirini o'tkazadilar.

Ichki boshqaruv mexanizmlarining samarali ishlashida pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi institutlarning roli alohida ahamiyatga ega. Ularning faoliyati korporativ boshqaruvni takomillashtirish jarayonida tobora muhim o'rin egallamoqda. Masalan, AQShda ushbu institutlarning kompaniyalar kapitalidagi ulushi 1946-yilda 5,2 foizni, 1971-yilda 31 foizni, 2001-yilda esa 49,1 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar institutsional investorlarning korporativ boshqaruvdagi ta'siri ortib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda direktorlar kengashlari ham muhim funksiyalarni bajaradi. Jumladan:

direktorlar kengashi rahbariyatga o'z vaqtida malakali maslahat va tavsiyalar beradi, shuningdek, menejment tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni tahlil va baholashni amalga oshiradi;

kompaniyaning rivojlanish strategiyasini belgilaydi, aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini aniqlaydi, yuqori boshqaruv xodimlarini tayinlaydi va ularning faoliyatini nazorat qiladi;

menejerlar faoliyatining aksiyadorlar manfaatlariga maksimal darajada mos bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ichki mexanizmlarning samaradorligi, avvalo, menejment, direktorlar kengashi hamda yirik va kichik aksiyadorlar o'rtasidagi mas'uliyatning aniq taqsimlanishiga va unga rioya etilishiga bog'liq. Ularning o'zaro munosabatlari hisobdorlik, axborot almashinuvi va ochiqlik tamoyillari asosida shakllanadi. Faqat barcha elementlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan holda ishlashi boshqaruv tizimidagi muvozanatni ta'minlaydi va korporativ samaradorlikning asosiy omiliga aylanadi.

Bugungi kunda AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda aksiyadorlar, menejment va direktorlar kengashi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish maqsadida yangi tartibga solish me'yorlari ishlab chiqilib, direktorlar kengashidagi tashqi a'zolar soni ko'paytirilmoqda hamda asosiy qo'mitalar — audit, rahbariyatni tayinlash va mukofotlash qo'mitalari — faqat tashqi a'zolardan shakllantirilishi tavsiya etilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklarda Amerika korporatsiyalarining direktorlar kengashlari menejment tomonidan boshqariladigan organlardan strategik qarorlar qabul qiluvchi professional boshqaruv organlariga aylangan. Bu esa korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Direktorlar kengashining tarkibi, faoliyati va yondashuvlaridagi ushbu o'zgarishlar quyidagi omillar bilan izohlanadi: korporativ qo'shilish va sotib olish jarayonlarining kengayishi, moliyaviy hisobotga qo'yiladigan talablarning kuchayishi, institutsional investorlarning faollashuvi, iqtisodiyotning globallashuvi hamda raqobat sharoitlarining o'zgarishi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy munosabatlarda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati korporativ tuzilmalarning iqtisodiy faoliyatini samarali boshqarish, moliyaviy oqimlarning to'g'ri taqsimlanishini va uzluksizligini ta'minlash, boshqaruvning strategik maqsadlarini ro'yobga chiqarish hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish kabi muhim vazifalarni hal etishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samarali faoliyati ko'p jihatdan korporativ boshqaruv tizimining qanchalik mukammal tashkil etilganligiga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruvni takomillashtirish sohada resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda innovatsion rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish orqali shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyat tamoyillariga rioya etilishi soha korxonalarining bozordagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda



korporativ boshqaruvning milliy modelini xalqaro ilg'or amaliyotlar bilan uyg'unlashtirish zarur bo'lib, bu qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflik, samaradorlik va boshqaruv madaniyatini yanada yuksaltiradi. Shu bilan birga, korxonalarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq yuritish, ichki audit tizimini kuchaytirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash maqsadida moliyaviy monitoring mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish esa korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi hamda korxonalar faoliyatini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish imkonini beradi. Mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy hamda iqtisodiy sharoitlar yaratish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali sohani modernizatsiya qilish va kapital oqimini rag'batlantirish zarur. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv, moliya va strategik menejment sohalarida malaka oshirish dasturlarini joriy etish, rahbar kadrlar uchun zamonaviy trening va amaliy seminarlar tashkil etish sohaning inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bozor kon'yunkturasi va texnologik rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda korporativ strategiyalarga ilmiy asoslangan prognoz parametrlarini kiritish esa soha barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish istiqbollari sanoat siyosatini barqaror amalga oshirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish yo'lida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlar mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Veasey E. N. The Emergence of Corporate Governance as a New Legal Discipline // The Business Lawyer. – August 1993. – Vol. 48, Issue 4. – P. 1267–1271.
2. Eells R. S. F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
3. Berle A., Means G. The Modern Corporation and Private Property. – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
4. Chayka N. K. Otsenka urovnya razvitiya korporativnogo upravleniya // STIN. – 2024. – № 1. – S. 20–24.
5. Suyunov D., Xoshimov E. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning metodologik jihatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2018-yil.
6. Ashurov Z. A. Korporativ boshqaruv konsepsiyasi va mohiyati: ilmiy–nazariy yondashuvlar va ularni rivojlantirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 6, noyabr–dekabr, 2015-yil.
7. Hamidulin M. B. Finansovye mekhanizmy korporativnogo upravleniya. Monografiya. – T.: Moliya, 2008. – 204 s.
8. Zaynutdinov Sh. N., Nurimbetov R. I. Resursnaya baza i potentsial proizvodstva Uzbekistana: ispolzovaniye i effektivnost (regionalnyy aspekt) // Byulleten nauki i praktiki. Elektron. zhurn. – 2017. – № 10 (23). – S. 207–212.
9. Mahmudov E. X. Promyshlennost Uzbekistana: ekonomika, razmeshcheniye, priority razvitiya (voprosy teorii i praktiki). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 131 s.
10. Niyazov S. M. Ekonomicheskoye reformirovaniye proizvodstvenno-tekhnicheskoy bazy stroitelstva. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 176 s.
11. Suyunov A. Modernizatsiya ekonomiki kapitalnogo stroitelstva na osnove sovershenstvovaniya investitsionnykh protsessov. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 164 s.
12. Elmirzayev S. Korporativ moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari. "Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy" jurnali, 2018, 6 (114).
13. Qurbanov J. Davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 56 b.
14. Akramov S. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2017-yil.
15. Najimov I. P. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash. Monografiya. – T.: Lesson Press, 2021. – 141 b.
16. Minervin I. G. Korporativnoye upravleniye: mirovoy opyt i perspektivy sovershenstvovaniya. Economic Report of the President. – Washington: Government Printing Office, 2003. – III, 404 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>